

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI



Normurodova Zebo Eshmaxmatovna
QarDU turizm va marketing kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Yashil turizm, shuningdek, barqaror turizm, ekoturizm yoki mas'uliyatli turizm sifatida ham tanilgan, turizmning salbiy ta'sirini minimallashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniyatni saqlash va ijtimoiy mas'uliyatni rag'batlantirishga qaratilgan sayohat turidir. Ushbu maqolada yashil turizm industriyasining ahamiyati rivojlantirish istiqbollari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Yashil turizm, Yashil turizm industriyasi, ekologik turizm, barqaror turizm, mas'uliyatli turizm.

Аннотация: Зеленый туризм, также известный как устойчивый туризм, экотуризм или ответственный туризм, представляет собой тип путешествий, целью которого является минимизация негативного воздействия туризма и содействие защите окружающей среды, сохранению культуры и социальной ответственности. В данной статье представлена информация о важности перспектив развития индустрии зеленого туризма.

Ключевые слова: Зеленый туризм, Индустрия зеленого туризма. экологический туризм, устойчивый туризм, ответственный туризм.

Abstract: Green tourism, also known as sustainable tourism, ecotourism, or responsible tourism, is a type of travel that aims to minimize the negative impacts of tourism and promote environmental protection, cultural preservation, and social responsibility. This article provides information about the importance of green tourism industry development prospects.

Key words: Green tourism, Green tourism industry. ecological tourism, sustainable tourism, responsible tourism.

KIRISH

Yashil turizmni rivojlantirish omillari va shartlarini tahlil qilish qo'llaniladigan tushunchalarining aniq ta'rifini o'z ichiga oladi. Bu muammo juda dolzarbdir, chunki So'nggi paytlarda "yashil" sifatdoshi ekologik turizm, qishloq yoki qishloq xo'jaligi, barqaror turizm bilan bir qatorda va sinonimi sifatida turli iboralarda ("yashil" turizm; "yashil" turizm sanoati; "yashil" turizm mahsuloti va boshqalar) keng tarqalgan va har doim ham oqilona ishlatilmaydi. UNEP va UNWTO bu tushunchalarini aniq farqlaydi. Yashil turizm ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda muhimdir, chunki yashil turizm zamonaviy rivojlanishnning muhim qismi hisoblangan sohadir va u atrof-muhitga zararli bo'limgan barqaror turizm amaliyotini rivojlantirishga yordam beradi. Yashil turizm tabiiy muhitni, ekotizimlarni va madaniy meros obyektlarini saqlashga, shu bilan birga sayyohlarga haqiqiy tajribalarini taqdim etishga qaratilgan. Shu sababli, yashil turizm tabiiy muhitga salbiy ta'sirini minimallashtiradigan barqaror turizm faoliyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yashil turizmni rivojlantirishga oid tadqiqotlar asosan xorij olimlari Alina-Cerasela Aluculesei,Daniel Avram, Puiu Nistoreanu, T. V. Tixonova, V. A.TShenyavskiy. fikricha, barqarorlikka e'tibor bugungi kunda turizm sanoatining kalitidir. Yashil turizm doimiy ravishda mahalliy hokimiyat organlarining kun tartibida bo'lib, ilmiy doiralar uchun ham qiziqish uyg'ota boshladи, ammo Markaziy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, turizmni o'rganishda unga juda kam murojaat qilindi. Sui Hening fikricha, hozirgi vaqtida ekologik muhitni yaxshilash va yashil rivojlanish jamiyatning yangi konsepsiysi va yangi normasiga aylandi. Ekoturizm bu – turizmnинг yangi shakli va turizmni rivojlantirish rejimi bo'lib, u nafaqat sayyohlarning ekologiya, madaniyat va turizmga bo'lgan ko'p qirrali ehtiyojlarini qondira oladi, balki mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga tutki beradi.



NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yashil turizmda sayyoqlar uchun haqiqiy tajribalarni taqdim etish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan barqaror turizm amaliyotini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. Yashil turizm turli yo'nalish va ma'no-larga ega bo'lgan ekologik toza turizm faoliyati sifatida tavsiflanadi. Keng ma'noda yashil turizm – bu ekologik toza turist bo'lish yoki ekologik toza turistik xizmatlar ko'rsatishdir. Yashil turizm konsepsiysi atrof-muhitni boshqarishning samarali va aniq usullarini qo'llash orqali atrof-muhit samaradorligini oshirish uchun hukumat bosimining kuchayishi tufayli sayyoqlik korxonalarini va operatorlari uchun juda jozibali bo'ladi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan ekologik mukofotlarga erishish va ilgari surish sayyoqlik korxonalarini o'z xizmatlarini sotishda muhim rol o'ynaydi. Natijada, ko'plab manfaatdor va mas'ul tomonlar turizmning salbiy ta'sirini tartibga solish uchun yashil turizm mahsulotlari bo'yicha tavsiyalar berishdi. Ushbu konseptual hujjat yashil turizm konsepsiyasini, yashil turizmni sertifikatlash va uning jarayonlarini muhokama qilishga, shuningdek, bir nechta mamlakatlarda yashil turizmning qiyosiy yondashuvlarini tushuntirishga harakat qildi.

"Yashil" turizm industriyasini rivojlantirishda yuqorida sanab o'tilgan omillar butun iqtisodiyotni va uning alohida tarmoqlarini, shu jumladan turizmni "yashillashтирish" imkoniyatlarini, zarurligini, chuqurligini va tezligini belgilaydi. Shu bilan birga, turizm industriyasi uni ko'kalamzorlashtirish jarayonlariga ta'sir qiluvchi bir qator xususiyatlarga ega. Bu, birinchi navbatda, turistik mahsulot hajmi va sifatining turistlar uchun destinatsiyaning jozibadorligini belgilovchi tabiiy va madaniy kapital hajmi va sifatiga bog'liqligidir. Tabiiy resurslarning tanaz-zulga uchrashi, tabiiy yodgorliklarning vayron bo'lishi, suv havzalarining ifloslanishi, landshaftlarning buzilishi, biologik xilma-xillikning kamayishi sayyoqlar oqimining qisqarishiga yoki to'liq yo'qligiga va natijada ushbu sektor asosiy bo'lgan iqtisodiyotning tanazzulga uchrashiga olib keladi.

Yashil turizm atamasi 1980-yillarda tabiiy hududlarga tashrif buyuradigan sayyoqlarning kichik guruhlarini nazarda tutgan holda paydo bo'lgan. Ular atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatdi. Oxir-oqibat odamlar uni eko-turizm va barqaror turizm bilan almashtirdilar.

UNWTO Yashil turizmni "Atrof-muhit, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstlarda biz cheksiz davom etishimiz mumkin bo'lgan faoliyatlar"-deb ta'riflaydi. Asosan, yashil turizm – bu barqaror turizmni rivojlantirishning bir usuli. Yashil turizm sektorlarga atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan, jamiyat va iqtisodiyotga foyda keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanishga yordam berishga qaratilgan.

Yashil turizm ekoturizm, barqaror turizm, tabiat turizmi, mas'uliyatlari turizm va qishloq turizmi kabi tushunchalar bilan almashtirilgan. Bundan tashqari xalqaro tashkilotlar bu tushunchani barqaror turizm konsepsiyasiga mos ravishda aniqladilar, bu esa atrof-muhitni muhofaza qilishdan tashqari boshqa jihatlarni ham hisobga oladi. Ekologik turizm va yashil turizm o'rtaqidagi bog'liqlik barqaror turizm amaliyotini targ'ib qilish, turizmning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va yashil turizm provayderlarining brend imidjini oshirish uchun juda muhimdir. . Bu yangi mijozlarni jalb qilishi va mavjudlarini saqlab qolishi va shu bilan yashil turizmning o'sishini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Ekoturizm turizmning bir tarmog'idir. Ekoturizm bilan bog'liq ko'plab kichik tarmoqlar mavjud. Biz ularni faqat asosiy diqqatga sazovor joy yoki mahsulotga qarab aniqlaymiz. Ular ekoturizmda maxsus qo'llaniladigan mezonlarga mos kelishi shart emas. Demak, ekoturizmning asosiy turlari asosan tabiatga asoslangan, yovvoyi tabiat, sarguzasht, agraturizm va madaniy turizmdir.

Yashil turizm barqaror turizmga erishish uchun katalizator hisoblanadi. Barqaror turizm turizm sektoriga barqaror amaliyotlarni kiritishni anglatadi. Barqaror turizm Jahon sayyoqlik tashkiloti tasdiqlaganidek, turizmning barqaror rivojlanishi manfaatdor tomonlarning yaxshi konturlangan siyosiy muhitda ishtirok etishini talab qiladi. Barqaror turizmni rivojlantirish uzoq muddatli va uzlusiz jarayon bo'lib, turizmning belgilangan joyga ta'sirini kuzatish va bu yo'lda tuzatish choralarini ko'rishni talab qiladi. Turistlar ham rivojlanishning muhim qismidir, shuning uchun mazmunli xabardorlik bilan bir qatorda mijozlarning yuqori qoniqishi ham zarur.

Birinchidan, yashil turizm mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, mas'uliyatlari turizm mahalliy aholi uchun ko'proq iqtisodiy foyda keltiradi va mezon jamoalarining farovonligini oshiradi, mehnat sharoitlari va sanoatga kirishni yaxshilaydi.

Ikkinchidan, barqaror turizm kamroq ekologik ta'sirga ega. Bir tomonidan yashil turizmning bir qismi mahalliy mahsulotlar va mahalliy korxonalarning oziq-ovqatlarini iste'mol qilishdir. Boshqa tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish iqtisodiy va ekologik jihatdan katta xarakatlarni talab qiladi.

Mahalliy ovqatlanish orqali siz nafaqat ko'plab chiqindilarni tejaysiz, balki oziq-ovqat yaxshiroq ekanligini ham bilib olasiz. Xususan, ingredientlar yangiroq, mahalliy aholi ularni qanday tayyorlashni bilishadi va ehtimol sizni qiziqtiradigan yangi narsalarni tatib ko'rasiz.

Uchinchidan, yashil turizm mahalliy aholi bilan yanada mazmunli aloqalar o'rnatish va mahalliy madaniy, ijtimoiy va atrof-muhit muammolarini yaxshiroq tushunish orqali sayyoqlar uchun ko'proq yoqimli tajribalar beradi.



Ekoturizm yoki barqaror turizm sifatida ham tanilgan yashil turizm bir necha sabablarga ko'ra muhimdir:

- Atrof-muhitni muhofaza qilish
- Iqtisodiy rivojlanish
- Madaniy saqlash
- Iqlim o'zgarishini yumshatish
- Shaxsiy o'sish
- Atrof muhitning ifloslanishini kamaytirish
- Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish
- Jamiyat ishtiroki
- Ta'lim va xabardorlik
- Uzoq muddatli barqarorlik

Yashil turizm aholi gavjum qishloq joylari uchun birinchi real muqobil, uning aholisi uchun daromad manbayi bo'llib, yangi mehnat bozorini yaratadi va umumiy turmush darajasini oshiradi. Turistlarga tinch va osoyishta, tabiiy muhit va qishloq landshaftida dam olishni taklif etuvchi yashil turizm, ayni paytda qishloq joylarida yashash sharoitlarini yaxshilash imkoniyatidir (1-jadval).

1-jadval: Turli subyektlar va segmentlar uchun yashil turizmning ahamiyati¹

Uy xo'jaliklari	Qishloq aholisi	Turistlar
Uy xo'jaligining bo'sh mablag'laridan foydalanish	Qishloqning bo'sh mablag'laridan foydalanish	Qishloqda faol dam olish kunlari
Qo'shimcha daromad	Qo'shimcha daromad	Oziq-ovqat ishlab chiqarish tsikli bilan tanishish
Qo'shimcha ish o'rinnari	Yangi ish joylari	Yangi ovqat iste'mol qilish
Uy xo'jaligi a'zolarini faollashtirish	Qishloq infratuzilmasini yaxshilash	Tabiat bilan bevosita aloqa
Uy xo'jaligi a'zolarining madaniy va ma'rifiy rivojlanishi	Qishloq jamoatchiligini faollashtirish	Qishloq xo'jaligi faoliyatida ishtirok etish
Oila a'zolarining shaxsiy rivojlanishi	Qishloqning madaniy va tarixiy merosini saqlash	Qishloq aholisi bilan bevosita aloqa
Boshqa madaniyat va urf-odatlarni bilish	Qishloqning estetik qiyofasini yaxshilash	Mintaqaning madaniyati bilan tanishish
	Boshqa madaniyatlar bilan aloqa	Yangi ko'nikmalarni egallash
	Qishloq aholisining shaxsiy rivojlanishi	Qiziqishning rivojlanishi

Shu bilan birga, faqat xususiy sektorda ta'lim va ishlab chiqarish faoliyati va uning bazasidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan turizm shakllarini yashil turizmga kiritish mumkin.

Shu bilan birga, yashil turizm bilan shug'ullanishning asosiy shartlari quydagilardan iborat: iqtisodiyot resurslaridan tashkil topgan iqtisodiyotning salohiyati, bu erda mulkdorning shaxsiyati birinchi darajali ahamiyatga ega; birinchi navbatda hududning jozibadorligi, makroiqtisodiy sharoitlar, mintaqaviy infratuzilmaning holati va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyot muhiti.

Ta'kidlash joizki, aholining yashil turizm mahsulotlariga amalga oshirilgan va potensial samarali talabini tavsiflash uchun aholi soni, uning qishloq joylarida dam olishni xohlovchi ulushi, aholining to'lov qobiliyati va dam olish uchun mumkin bo'lgan xarajatlarini hisobga olgan holda bozor sig'imini aniqlash zarur.

Shuning uchun biz yashil turizm xizmatlariga talab sig'imini quyidagi formula bo'yicha aniqlashni taklif qilish:

$$Cyt = Kn \times Fk \times Tch \times Chs \times Cha \quad (1)$$

bu yerda:

Cyt – yashil turizm xizmatlari bozorining sig'imi;

Kn – aholi soni (mamlakat yoki mintaqा);

Fk – bir shaxsning to'lov qobiliyati;

Tch – turizmga sarflangan xarajatlarning umumiy xarajatlardagi ulushi, %;

Chs – qishloq joylarida dam olishni afzal ko'radiganlar ulushi, %;

Cha – shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida dam olishni xohlovchilar ulushi, %.

¹ Имяреков С. М., Пониматкина Л. А., Лебедева О. Е. "Перспективы развития зеленого туризма в современных условиях" Научный журнал. Вестник Алтайской академии экономики и права. №9 (часть 1) 2021 год



Bundan tashqari, yashil turizm rivojlanishini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimini taklif qilinadi:

- respublika miqyosida: agroturistik fermer xo'jaliklari soni; dehqon xo'jaliklarining umumiy sonida agroturistik fermer xo'jaliklarining ulushi; agroturist xo'jaliklarida xonalar va yotoqlar soni; tunashning umumiy bazasida yotoqlarning ulushi; yashil turizmda band bo'lganlar soni;
- hududiy (mahalliy) miqyosda (shu jumladan, respublika miqyosidagi ko'rsatkichlar guruhi): agroturistik fermer xo'jaliklari sonidagi hududning ulushi; hududning agroturizm salohiyatidan foydalanish; yashil turizmda bandlikning multiplikativ ta'siri; yashil turizm infratuzilmasini rivojlantirish.
- muayyan fermer xo'jaligi darajasida: xizmatlar sifatining xususiyatlari (turar joy, oziq-ovqat, boshqa takliflar); iqtisodiyot daromadlarida yashil turizm xizmatlarining ulushi; turistik faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (oqim, daromad).

Buning uchun tanlangan mezonlarning qiymatini ekspert baholash asosida vaznli ko'rsatkich ishlatalgan. Natijada jozibadorlik mezonlarining quyidagi taqsimoti olindi:

- 1) hududning o'rmon qoplami (x1) – 29%;
- 2) qishloq xo'jaligi yerlarining mavjudligi (x2) – 25%;
- 3) atrof-muhit tozaligi (x3) – 23%;
- 4) muhofaza etiladigan hududlarning mavjudligi (x4) – 17%;
- 5) aholi zichligi (x5) – 6%. Shunga ko'ra, yashil turizmni rivojlantirish uchun hududning qulaylik koeffitsiyenti quyidagilarga teng bo'ladi:

$$IS = 0,29x_1 + 0,25x_2 + 0,23x_3 + 0,17x_4 + 0,06x_5$$

Yashil turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va tahdidlarini baholar ekan, u qishloq xo'jaligining ham, turizmning ham ajralmas qismi ekanligidan kelib chiqish kerak, shuning uchun uning imkoniyatlarini ushbu ikki sohaning rivojlanish istiqbollari nuqtayi nazaridan baholash mumkin [6]. Shu bilan birga, yashil turizmni rivojlantirish yo'llidagi asosiy to'siqlar quyidagilardir: aholining past to'lov qobiliyati, qishloq aholisining moliyaviy muammo-lari, siyosiy va iqtisodiy vaziyatning beqarorligi, huquqiy beqarorlik, qishloq xo'jaligi va turizmni rivojlantirish bo'yicha aniq strategiyalarning yo'qligi, qishloq jamoalarining an'analari va mentaliteti.

Shunday qilib, turli daromadli dam oluvchilar segmentini kengaytirish, toza muhitda dam olishni tashkil etish va qishloq aholisini faollashtirish, to'g'ri mehnat sharoitlarini yaratish va qishloqda yashash zarurati uy xo'jaliklarini diversifikatsiya qilish, birinchi navbatda, tadbirkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish va qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, shu jumladan, yashil turizmni rivojlantirish zarurligini taqozo etmoqda.

XULOSA

Rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm rivojlanishining zararli ta'siri o'tgan tadqiqotlarda yaxshi muhokama qilingan. Tabiiy muhitni turizmnинг hayotiy resursi sifatida e'tirof etgan holda, turizm industriyasining davlat va xususiy sektorlari turizmni rivojlantirish bilan bog'liq atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni cheklash maqsadida atrof-muhitga mos keladigan rivojlanish chora-tadbirlarini tobora ko'proq qabul qilmoqda va amalga oshirmoqda. Ekologik jihatdan sezgir turizmni rivojlantirishning asosiy elementlari, umuman olganda, yangi rivojlanishni cheklash va tartibga solish, ajoyib tabiiy go'zallik va biologik xilma-xillikka ega hududlarni saqlash va himoya qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, turizmning bu turi sayohatning salbiy ta'sirini ham kamaytirishga, ham yo'q qilishga harakat qiladi. Quvonarлиsi, tobora ko'proq sayyoqlik yo'naliшlari va korxonalarini yanada barqaror va mas'uliyatli turizmni rag'batlantirishga e'tibor qaratmoqda.

Yashil turizm o'ziga xos va boyituvchi sayohat tajribasini taqdim etadi, bu esa shaxsiy o'sishni va o'rganishni rag'batlantiradi, shu bilan birga boradigan joyning tabiiy va madaniy merosini saqlashga hissa qo'shamdi. Va buni mas'uliyat bilan bajarish turistlar va xizmat ko'rsatuvchilarga mahalliy aholi bilan mazmunli aloqalar orqali o'rganish va mahalliy madaniy, shuningdek, ijtimoiy va ekologik muammolarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Mas'uliyat bilan sayohat qilish nafaqat turistlar tashrif buyuradigan manzillar va jamoalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki u ko'pincha xotiralaramizning diqqatga sazovor joylariga aylanadigan boyituvchi tajribalar bilan ta'minlaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alina-Cerasela Aluculesei, Daniel Avram, Puiu Nistoreanu. Is Green Marketing a Label for Ecotourism? The Romanian Experience. The Best [Accounting Information System & Information Technology Business Enterprise] 11(8). August 2020.
2. Т. В. Тихонова, В. А. Щенявский. Зеленый туризм: подходы, региональная оценка, особенности развития проблемы развития территории вып. 4 (90)/ 2017
3. Абдуллоев, А. Ж., Таирова, М. М., & Усманова, А. Б. (2020). Особая Характеристика Агротуризма. Вопросы Науки И Образования, (11), 95.
4. Vaxabov A. X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot. Darslik. –Т.: “Universitet”, 2020. – 296 b.
5. Xaitboyev R. Ekologik turizm. O’quv qo’llanma. –Т.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 248 b. 3. Shamuratova N. T. O’zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. Monografiya. –Т.: Universitet, 2021. – 139 b.
6. UNWTO Tourism Highlights, 2015 Edition [Electronic resource]. – Madrid : UNWTO, 2015 – P. 16. – Available at : http://mkt. unwto. org/publication/unwto-tourism-highlights–2015-edition – Access data 12. 08. 2016
7. Имяреков С. М., Пониматкина Л. А., Лебедева О. Е. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОГО ТУРИЗМА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2021. – № 9–1. – С. 64–68;
8. Vu D. H. Developing green tourism to create sustainable livelihood in response to climate change in the Cuu long river delta in Vietnam // Economics. 2020. № 3 (46). P. 5–15.
7. www. lex. uz
8. www. uznature. uz
9. <http://agroturizm. uz/ru/>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

